KORXONA ISHLAB CHIQARISH XARAJATINI TARKIBIY TUZILISHI

Turabekov.A.A
Toshkent pedagogika va iqtisodiyot instituti i.f.n. dotsenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.13767808

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotni barqaror va samarali rivojlantirish maqsadiga korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari tarkibini diversifikatsiyalashtirish, ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya va optimallashtirish natijasida erishish yo'llari o'rganildi.

KALIT SO'ZLAR

diversifikatsiyalashtirish, iste'mol bozori, ishlab chiqarish quvvati, doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar, aylanma xarajat mablag'lari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследованы пути достижения цели устойчивого и эффективного развития национальной экономики в результате диверсификации структуры производственных затрат предприятия, модернизации и оптимизации производственного процесса.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

диверсификация, потребительский рынок, производственные мощности, постоянные и переменные затраты, оборотные фонды затрат.

ABSTRACT

This article investigates ways to achieve the goal of sustainable and effective development of the national economy as a result of diversification of the enterprise production cost structure, modernisation and optimisation of the production process.

KEY WORDS

diversification, consumer market, production capacity, fixed and variable costs, revolving cost funds.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonida 2022 yil 22 yanvarda tasdiqlangan qarorida "Taraqqiyot strategiyasini asosiy maqsadlari xalq faravonligini yanada oshirish iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyasilash, tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqi va manfaatlarini so'zsiz himoya qilish, faol fuqorolik jamiyatini shakllantirish zaruriyati belgilangan.

Milliy iqtisodiyotni barqaror va samarali rivojlantirish ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya va diversifikatsiyalashtirish asosida ishlab chiqarish korxonalari ishlab chiqarish xarajatlarini tejamkorlik asosida olib borish muhim iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu o‘rinda korxona ishlab chiqarish xarajatlarini tartibga solish iqtisodiy rivojlantirishni tejamkorlik asosida olib borishning asosiy omili hisoblanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini tarkibini ko‘rib chiqishda uni aniq va noaniq xarajatlarga bo‘lib o‘rganish yoki ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni o‘rganish uslubidan ham foydalanish mumkin. Korxonaning ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish avvalom bor bozor iste’mol talablarini o‘rganish asosida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish zarur. Agarda korxona tomonidan iste’mol bozorida chiqarilgan mahsulot tovarlariga talab o‘sib borsa uning ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun qo‘shimcha xarajatlar talab etiladi.

Korxonaning ishlab chiqarishni qo‘shimcha ravishda ko‘paytirish bilan bog‘liq xarajatlarga bo‘lgan talablarini zarur bo‘lgan xarajatlar bilan ta’minlovchi korxona har doim ham tezlik bilan uni tartibga solaolmaydilar.

Korxonaning ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va qay hajmda va qanday yo‘nalishlarga iste’mol bozoriga mahsulot ishlab chiqarish hajmi, sifati va mahsulot birligining qiymati ishlab chiqaruvchi korxonaning ishlab chiqarish quvvatini, tarkibini va uni qanchalik ishlab chiqarishini ta’minlovchi texnika parklari quvvatini takomillashtirib borishiga bog‘liq.

Agarda korxonaning ishlab chiqarish xarajatini asosiy qismini asosiy ishlab chiqarish fondlari tariqasida ifodalanuvchi ishlab chiqarish vositalari, texnika va texnologiyalar hisoblansa, bu xarajatning ikkinchi qismi aylanma xarajat mablag‘laridan tashkil topadi.

To‘g‘ri uning ishlab chiqarish jarayoni yo‘nalishini o‘zgartirishda o‘zgaruvchan xarajatlarni shu firma darajasida mahsulot turini ishlab chiqarishni tashkil etishda ularni ya’ni o‘zgaruvchan xarajatlarni o‘zgartirish mumkin. Bu ishlab chiqarish jarayonida ma’lum bir mahsulot ishlab chiqarish yo‘nalishini o‘zgartirish bilan bog‘liq o‘zgaruvchan xarajatlar turlari bo‘lgan xomashyo, yoqilg‘i va moylash mahsulotlari. Elektrenergiyasidan foydalanish ishlab chiqarishda band bo‘lgan xodimlarga ish haqqini soat bay asosida to‘lashni qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Korxona ishlab chiqarishini tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlarni doimiy yoki o‘zgaruvchan ekanligini aniq ishlab chiqarish holatidan kelib chiqqan holda aniqlash mumkin.

Korxonalarda o‘zgaruvchi xarajatlar asosida ishlab chiqarish jarayonini kengaytirish maqsadida qurilish ishlarini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan

vaqtincha qo‘shimcha ishchi kuchlarini jalb etish bilan bog‘liq xarajatlar ham o‘zgaruvchi xarajatlari hisoblanadi. Demak korxonada vaqtincha o‘zgaruvchi xarajatlarni tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar o‘zgaruvchan xarajatlarni tashkil etadi. Ishlab chiqarish xarajatlaridan foydalanishni ikki yo‘nalishga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu xarajatlar doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar tariqasida ishlab chiqarish jarayonida foydalanish vaqtini ham qisqa muddatli vaqtda foydalaniladigan o‘zgaruvchan xarajatlar va uzoq muddatli foydalaniladigan, o‘zgarmaydigan doimiy xarajatlar tariqasi ulardan foydalanish vaqti ham qisqa va uzoq muddatli foydalanish vaqtiga ega ekanligini ko‘rish mumkin.

Xarajatlarning bu ikkala o‘zgaruvchi va doimiy xarajatlar va ishlab chiqarish tovarlarga sarflangan barcha xarajatlar shu jumladan iste’mol bozorlariga yetqizish bilan bog‘liq barcha xarajatlar ijtimoiy xarajatlarni tashkil etadi. Ijtimoiy xarajatlar ikki qismdan ishlab chiqarish va muomala xarajatlari yig‘indisidan tashkil topadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari ma’lum bir yo‘nalishda iste’mol bozori uchun ishlab chiqariladigan mahsulotlarning bir turini ishlab chiqarish bilan bog‘liq barcha xarajat turlarini tashkil etsa, muomala xarajatlari ishlab chiqarilgan yangi tovar qiymatida firma tomonidan o‘zlashtiriladigan foyda muomala xarajatlarini qoplangandan so‘ng qoladigan foyda korxonaning foydasini ifoda etadi va uning ma’lum foizi qismida iste’mol bozorlariga iste’mol tovarlarini yetkazib bergani bo‘ladigan muomala xarajatlari belgilangan ulushini o‘zlashtiradilar.

Ishlab chiqarish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar iste'mol bozoriga asosan muomala sohasida iste’mol bozoriga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar iste’molchilarga yetkazib berish ishlab chiqarilgan tovarlarni asosida ishlab chiqaruvchi korxonani doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarini qoplash va foyda olishni ta’minlashi bilan birga tovarlarni iste’mol bozoriga yetkazib berish bilan bog‘liq muomala xarajatlarini va ularga ishlab chiqarish firmasi kechib bergan foydasini o‘zlashtirishni ta’minlaydi. Ularda ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlari muomala sohalarida qo‘shimcha xarajatlar tariqasida tovarlarning ma’lum bir kamchiliklarni oldini olish, ularni maxsus holda joylashtirish, saqlash va boshqa qo‘shimcha xarajatlar bilan bog‘liq bo‘lib bu xarajatlar ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan qoplanishi yoki tovarlar qiymatiga qo‘shimcha xarajatlar tariqasida tovarlarni sotuvi asosida qoplanadi.

Ishlab chiqarish xarajati asosiy iqtisodiy ko‘rsatkich bo‘lish uning ishlab jarayonini yakuniy holatini uni samarali foyda olib ishlayotganini yoki samarasi ziyoniga ishlayotgani belgilab beradi.

Korxona ishlab chiqarish jarayoni uning moliyaviy yakuniy holatida uning ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash yoki qoplamayotganini samarali foyda olish asosida yoki foyda olmasdan ziyonga zarar ko‘rib ishlayotganini ko‘rsatadi.